



UDK:316.42:323.1

Husan A. OCHILOV,
Mustaqil izlanuvchi, Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston
E-mail: ochilovhusan470@gmail.com, ORCID: 0009-0003-0491-2293

TITU dotsenti, PhD S.Ibrohimov taqrizi asosida

YANGILANAYOTGAN O'ZBEK JAMIYATIDA MILLIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG'UNLIGI PARADIGMALARI

Annotatsiya

Maqolada modernizatsiya sharoitida yangilanayotgan o'zbek jamiyatida milliy an'analar va zamonaviy taraqqiyot uyg'unligining ijtimoiy-falsafiy paradigmaları dialektik yondashuv asosida tadqiq etilgan. Unda vorisilik va innovatsiyalar integratsiyasi, ya'ni "milliy shakl va zamonaviy mazmun" muvozanatini saqlash Yangi O'zbekiston barqaror taraqqiyot modelining poydevori ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, modernizatsiya, uyg'unlik, paradigmalar, globallashuv, barqarorlik, milliy shakl, zamonaviy yondashuvlar.

ПАРАДИГМЫ ГАРМОНИИ НАЦИОНАЛЬНОСТИ И СОВРЕМЕННОСТИ В ОБНОВЛЯЕМОМ УЗБЕКСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В статье на основе диалектического подхода исследованы социально-философские парадигмы гармонии национальных традиций и современного развития в обновляющемся узбекском обществе в условиях модернизации. В ней обосновано, что интеграция преемственности и инноваций, то есть сохранение баланса «национальной формы и современного содержания», является фундаментом модели устойчивого развития Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, модернизация, гармония, парадигмы, глобализация, устойчивость, национальная форма, современные подходы.

PARADIGMS OF HARMONY BETWEEN NATIONALITY AND MODERNITY IN THE RENEWING UZBEK SOCIETY

Annotation

The article investigates the socio-philosophical paradigms of harmony between national traditions and modern development in the renewing Uzbek society under the conditions of modernization, utilizing a dialectical approach. It demonstrates that the integration of continuity and innovations—specifically maintaining a balance between "national form and modern content"—serves as the foundation for the sustainable development model of New Uzbekistan.

Key words: New Uzbekistan, modernization, harmony, paradigms, globalization, sustainability, national form, modern approaches.

Kirish. Yangilanayotgan o'zbek jamiyatida milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki globallashuv, raqamlashtirish va axborot oqimlarining kuchayishi sharoitida har bir millat o'z ma'naviy qiyofasini saqlab qolish bilan birga zamonaviy taraqqiyot talablariga ham moslashishi zarur. "Baxtga qarshi hozirgi davrda global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar tobora avj olib, dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda"[1.6]. Milliy an'analar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy tajribasi va ijtimoiy birligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, modernizatsiya iqtisodiy rivojlanish, innovatsion tafakkur, ilmiy taraqqiyot va ochiq jamiyat tamoyillarini hayotga tatbiq etishni taqozo etadi.

Mazkur uyg'unlikning yana bir dolzarb jihati yoshlar tarbiyasi va milliy identiklikni saqlash bilan bog'liqdir. Bugungi kunda internet madaniyati, ommaviy madaniyat va tashqi mafkuraviy ta'sirlar yoshlarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. "Yoshlarimiz ham mana shunday mafkuraviy kurash sharoitida sezgir va ogoh bo'lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatini o'ylab ish tutishi zarur"[1]. Ayni paytda zamonaviy bilim, texnologiya va innovatsion tafakkurni egallash modernizatsiyaning asosiy sharti

hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimida milliy qadriyatlar bilan zamonaviy fan yutuqlarini uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi davlat siyosatining muhim falsafiy va amaliy yo'nalishiga aylanmoqda. Chunki taraqqiyotning barqaror modeli faqat iqtisodiy o'sish bilan emas, balki ma'naviy yuksalish bilan ham belgilanadi. Milliy an'analar insonparvarlik, bag'rikenglik, jamoaviylik va mehr-oqibat kabi qadriyatlarni mustahkamlab, jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlaydi. "Hech shubhasiz, biz bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bilan birga ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz"[2.18]. Modernizatsiya esa davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim va huquqiy tizimni zamonaviy mezonlar asosida takomillashtirish imkonini beradi. Agar ushbu ikki omil o'zaro uyg'unlashsa, milliy taraqqiyotda ham ma'naviy, ham texnologik rivojlanish bir vaqtning o'zida ta'minlanadi. Yangi O'zbekistonda "inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan shu uyg'unlikka tayanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuning adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yangilanayotgan O'zbekiston jamiyatida milliy an'analar va modernizatsiya

uyg'unligi masalasi davlat siyosatining muhim falsafiy yo'nalishlaridan biri sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida milliy taraqqiyotning asosiy tamoyili sifatida inson qadri, ma'naviy meros va zamonaviy islohotlar uyg'unligi ilgari suriladi[4.470]. Asarda "milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" g'oyasi jamiyat modernizatsiyasining konseptual asosi sifatida talqin qilinib, milliy qadriyatlarga tayangan holda ochiq va innovatsion jamiyat qurish nazariyasi asoslab berilgan. Prezidentning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida ham milliy an'analar va demokratik modernizatsiya o'rtasidagi dialektik bog'liqlik keng yoritilgan[4]. Muallif jamiyat taraqqiyotining barqarorligi milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va ma'naviy merosni asrash bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv falsafadagi sivilizatsion taraqqiyot nazariyasiga yaqin bo'lib, modernizatsiyani milliy madaniyatdan ajralmagan jarayon sifatida anglashga xizmat qiladi.

O'zbek falsafa maktabi vakillaridan Ibrohim Mo'minovning "O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan" asarida milliy madaniy meros va ma'naviy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining ma'naviy poydevori sifatida tahlil qilingan[5]. Olim milliy an'analarni jamiyatning tarixiy xotirasi va ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi omil deb baholaydi. Bu g'oyalar milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi paradigmagini anglashda muhim metodologik ahamiyatga ega. Akademik Erkin Yusupovning "Inson kamolotining ma'naviy asoslari" asarida modernizatsiya jarayonida milliy an'analarni inkor qilish ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin[6.54]. Shu sababli modernizatsiya ma'naviy vorisiylik asosida amalga oshirilishi lozim.

Q.Nazarov "Jahon falsafasi qomusi", "O'zbek falsafasi", "Milliy g'oya va ijtimoiy taraqqiyot" asarlarida milliy g'oya milliy an'analar, tarixiy xotira va zamonaviy taraqqiyot maqsadlarini birlashtiruvchi konseptual asosdir. Olim modernizatsiyani milliy manfaatlar va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirish g'oyasini ilgari suradi[7]. Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi masalasi zamonaviy o'zbek falsafasida sivilizatsion taraqqiyot, ma'naviy yangilanish va milliy identiklik konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilmoqda. Prezident asarlari va o'zbek olimlarining nazariy yondashuvlari milliy taraqqiyotning o'zbek modelida an'ana va innovatsiya o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ijtimoiy-falsafiy qonuniyat ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda paradigma tushunchasi amerikalik faylasuf va ilmshunos Thomas Kuhnning ilmiy paradigmalar nazariyasi asosida talqin qilindi. Uning fikricha, har bir jamiyat taraqqiyoti muayyan dunyoqarash, qadriyatlar va metodologik tamoyillarga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekistonda milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi yangi ijtimoiy-falsafiy paradigma sifatida shakllanmoqda. Maqolada o'zbek olimlarining milliy taraqqiyot va ma'naviy yangilanishga oid nazariy yondashuvlaridan ham foydalanildi. Xususan, akademik Erkin Yusupovning milliy tafakkur va ma'naviy taraqqiyot haqidagi qarashlari, professor Ibrohim Mo'minovning madaniy meros va sivilizatsion vorisiylikka doir g'oyalari tadqiqotning nazariy poydevorini boyitdi. Ularning qarashlarida milliy qadriyatlarni saqlash jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida baholanadi. Shu bilan birga, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan inson qadri, ma'naviy taraqqiyot va ochiq jamiyat g'oyalari ham metodologik manba sifatida o'rganildi. Maqolada mazkur g'oyalar milliy an'analar bilan uyg'un holda

tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik ahamiyati shundaki, u milliy an'analar va modernizatsiyani qarama-qarshi jarayonlar emas, balki bir-birini to'ldiruvchi ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar sifatida asoslab beradi. Natijada jamiyat taraqqiyotining barqaror modeli milliy meros, ma'naviy qadriyatlar va zamonaviy innovatsion taraqqiyotning o'zaro uyg'unligi orqali shakllanishi ilmiy jihatdan dalillanadi.

Muhokama va tahlillar. Yangilanayotgan o'zbek jamiyatida milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi paradigmasi avvalo "an'anaviylik va yangilanish dialektikasi" orqali namoyon bo'ladi. Falsafada taraqqiyot to'g'risidagi ta'limot, ilmiy bilish metodlaridan biri bo'lgan dialektika tushunchasi[2] qarama-qarshiliklar birligi va ularning taraqqiyot manbai ekanligini anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy an'analar o'tmish merosi sifatida jamiyatning ma'naviy asosini belgilasa, modernizatsiya kelajakka yo'naltirilgan ijtimoiy o'zgarishlarni ifoda etadi. O'zbekiston taraqqiyotida bu ikki omil o'zaro zid emas, balki bir-birini to'ldiruvchi jarayon sifatida talqin qilinmoqda. Masalan, mahalla instituti an'anaviy ijtimoiy tuzilma bo'lsa-da, bugun u raqamli boshqaruv va ijtimoiy xizmatlar tizimi bilan integratsiyalashmoqda.

Milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligining muhim paradigmalaridan biri "milliy identiklik va global integratsiya" munosabatidir. Globallashuv jarayonida har bir millat o'z madaniy qiyofasini saqlab qolish bilan bir vaqtda jahon taraqqiyotiga integratsiyalashishga intiladi. O'zbekistonda ham milliy liboslar, urf-odatlar, til va qadriyatlarni asrash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro ta'lim va innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotning asosiy mezoniga aylanmoqda. Milliy qadriyatlarining raqamli platformalar orqali targ'ib qilinishi ham shu jarayonning amaliy ko'rinishidir. Shu tariqa milliy o'zlik global sivilizatsiya bilan raqobatlashuvchi emas, balki hamkorlik qiluvchi omilga aylanmoqda.

Ushbu uyg'unlik paradigmasida "inson markazchiligi" tamoyili ham alohida o'rin tutadi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida "Inson qadri uchun" g'oyasi davlat siyosati darajasida ilgari surilmoqda. "Biz inson manfaatlarini iqtisodiy islohotlarning bosh mazmuniga aylantiramiz" [4.281]. Bu gumanistik falsafaning amaliy ifodasidir. Milliy an'analarda insonga hurmat, kattaga ehtirom, kichikka izzat kabi qadriyatlar muhim o'rin egallagan. Modernizatsiya esa inson huquqlari, erkinlik, shaxsiy tashabbus va ijtimoiy faollikni kuchaytirishni talab etadi. Mazkur ikki omil uyg'unlashganda, jamiyatda ham ma'naviy, ham huquqiy madaniyat yuksaladi. Demak, milliy an'analar va modernizatsiya insonparvarlik falsafasi asosida birlashmoqda.

Milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligida "vorisiylik va innovatsiya" paradigmasi muhim ahamiyatga ega. Vorisiylik jamiyatning tarixiy xotirasi va madaniy davomiyligini ta'minlaydi. Innovatsiya esa taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. O'zbekistonda qadimiy ma'naviy merosni saqlash bilan birga uni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish siyosati amalga oshirilmoqda. Mazkur uyg'unlikda "ma'naviyat va texnokratiya" munosabati ham dolzarbdir. Zamonaviy modernizatsiya ko'pincha texnika va texnologiya ustuvorligi bilan bog'lanadi. Biroq texnik taraqqiyot ma'naviy asoslarsiz ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. "Bugun ma'naviyat boshqa sohalaridan o'n qadam oldinda yurishi kerak. YA'ni texnologiya insonga xizmat qilishi kerak, inson texnologiyaga emas. Shu ma'noda milliy an'analar modernizatsiyaning ma'naviy filtri vazifasini bajaradi.

Milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligida "ijtimoiy hamjihatlik" paradigmasi ham muhim o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlar odamlarni birlashtiruvchi ma'naviy kuch

sifatida namoyon bo'ladi. Modernizatsiya jarayonida ijtimoiy tabaqalashuv va individualizm kuchayishi mumkin. "Shu sababli jamiyat barqarorligi uchun an'anaviy hamjihatlik mexanizmlarini saqlash zarur"[11.230]. Mahalla instituti, hashar, xayriya va qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari ana shunday ijtimoiy kapital hisoblanadi. Bu jarayon Emil Dyurkgeym ta'limotidagi "ijtimoiy birdamlik" g'oyasi bilan uyg'unlashadi. YA'ni jamiyatni faqat huquqiy tizim emas, balki umumiy ma'naviy qadriyatlar ham birlashtiradi. O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlarida ana shu milliy hamjihatlik an'analari saqlanib qolayotgani jamiyat barqarorligini ta'minlamoqda.

"Madaniy plyuralizm" paradigmasi ham milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligining muhim jihati. O'zbekiston ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyat sifatida turli madaniy an'analarni o'zida mujassamlashtirgan. Modernizatsiya jarayonida turli madaniy guruhlarining teng ishtirokini ta'minlash demokratik taraqqiyotning muhim mezonini hisoblanadi. Milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi "axloqiy modernizatsiya" paradigmasi orqali ham namoyon bo'ladi. Masalan, korrupsiyaga qarshi kurash, ochiq davlat boshqaruvi va jamoatchilik nazorati milliy axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashmoqda. Bu jarayon shaxsning ichki ma'naviy mas'uliyati va tashqi huquqiy tizimning birlashuvini anglatadi.

"Ta'lim va ma'rifat paradigmasi" milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Alisher Navoiy "Xazoinul ma'oni" asarida shunday yozadi, "Inson qadri - axloq va fazilat bilan o'lchanur, ilm va ma'rifat bilan yetuk bo'lur"[12]. Jadidlar harakatida ham milliy qadriyatlar va zamonaviy ilmiy birlashtirish g'oyasi ilgari surilgan. Bugungi kunda ham ta'lim tizimida milliy ma'naviyat va innovatsion bilimlar integratsiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Falsafada ma'rifat inson tafakkurining erkinlashuvi sifatida talqin qilinadi. Demak, modernizatsiya ma'naviy merosni inkor qilmasdan, uning yangi bilimlar bilan boyishini ta'minlaydi.

Milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligida "milliy davlatchilik va fuqarolik jamiyati" paradigmasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy davlatchilik tarixiy an'analar va siyosiy merosga tayanadi. Modernizatsiya esa demokratik institutlar, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni talab qiladi. Chunki, Siyosiy ong rivojlanmagan jamiyatda qonunga itoat emas, undan qo'rqish ustuvor bo'ladi.

"Oila va gender modernizatsiyasi" paradigmasi ham muhim hisoblanadi. O'zbek jamiyatida oila muqaddas qadriyat sifatida qaraladi. Biroq zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi, ta'limi va iqtisodiy ishtiroki kuchaymoqda. Bu holat an'anaviy oila institutining yangi mazmunda takomillashuvini anglatadi. Milliy qadriyatlar asosida oilani saqlash bilan bir vaqtda gender tenglikni ta'minlash modernizatsiyaning muhim vazifasidir. Bu jarayon jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni mustahkamlaydi va falsafada mazkur holat "ijtimoiy evolyusiyasi" tushunchasi bilan bog'liqdir.

Demak, modernizatsiya milliy oila qadriyatlarini yo'qotmay, ularning zamonaviy hayotga moslashuvini ta'minlamoqda.

"Ekologik madaniyat va milliy meros" paradigmasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Milliy an'analarda tabiatga ehtirom, suvni asrash va yerni muqaddas, deb bilish kabi qadriyatlar mavjud. Zamonaviy modernizatsiya esa sanoatlashuv va urbanizatsiya bilan bog'liq ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli milliy ekologik qadriyatlarni zamonaviy "yashil iqtisodiyot" g'oyalari bilan uyg'unlashtirish muhimdir. O'zbekistonda daraxt ekish, suv tejash va ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan dasturlar ana shu paradigmaning amaliy ko'rinishidir. Milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi "raqamli madaniyat" paradigmasida ham namoyon bo'lmoqda. Raqamlashtirish zamonaviy jamiyatning asosiy xususiyatiga aylandi. O'zbekistonda o'zbek tilidagi elektron platformalar, milliy kontent va onlayn ta'lim tizimlarining rivojlanishi bu jarayonning amaliy namunasidir.

Xulosa va natijalar. Yangilanayotgan O'zbekiston jamiyatida milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi ijtimoiy taraqqiyotning dialektik qonuniyati sifatida namoyon bo'ladi. Falsafiy jihatdan qaralganda, modernizatsiya milliy qadriyatlarini inkor etish emas, balki ularni yangi tarixiy sharoitga moslashtirgan holda rivojlantirish jarayonidir. Shu bois milliy an'analar jamiyatning ma'naviy barqarorligi va sivilizatsion vorisiyligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

"Milliy shakl va zamonaviy mazmun" paradigmasi O'zbekiston taraqqiyotining konseptual modeli sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuv globallashtirish sharoitida milliy identiklikni saqlash bilan bir vaqtda innovatsion taraqqiyot, raqamlashtirish va ochiq jamiyat tamoyillarini joriy etish imkonini beradi. Bu esa milliy taraqqiyotning o'ziga xos sivilizatsion yo'lini belgilaydi.

Milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi jamiyat ma'naviy hayotida "vorisiylik va yangilanish birligi" tamoyilini yuzaga keltiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, jamiyat o'zining tarixiy tajribasiga tayanmagan holda barqaror modernizatsiyaga erisha olmaydi. Shuning uchun ham milliy meros ijtimoiy ong va madaniy transformatsiyaning ma'naviy poydevori vazifasini bajaradi.

Zamonaviy O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari inson qadri, ijtimoiy adolat va ma'naviy taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashmoqda. Bu holat modernizatsiyaning faqat iqtisodiy yoki texnologik emas, balki insonparvarlik mazmuniga ega ijtimoiy-falsafiy jarayon ekanligini ko'rsatadi. Natijada milliy an'analar jamiyatning axloqiy-madaniy immunitetini mustahkamllovchi omilga aylanadi.

Milliy an'analar va modernizatsiya uyg'unligi paradigmasi Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati, ma'naviy taraqqiyot va milliy o'zlikni anglash jarayonlarining metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, an'ana va innovatsiya o'rtasidagi muvozanat saqlangan jamiyatgina global sivilizatsiyada o'z mustaqil taraqqiyot modelini yarata oladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. –Toshkent: O'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoev Sh.M. Bir bo'lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanimiz. 8-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2024.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" 1-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Ibrohim Mo'minov. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan. –Toshkent: Fan, 1969.
6. Erkin Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. Ma'naviyat.yu 1996.
7. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi", 1-2-jildlar, -Toshkent: O'zFMJ, 2023.
8. Mirziyoev Sh. Bir bo'lsak — yagona xalqmiz, birlashsak — Vatanimiz. 8-jild. Toshkent: O'zbekiston, -B.
9. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya) –Toshkent: O'zFMJ, 2004.
10. Tashanov A. Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar. –Toshkent: turon zamin ziyo, 2015.
11. Tashanov A. Davlat xizmatchisi kompetentligi. –Toshkent: O'zFMJ, 2018.
12. Alisher Navoiy. Xazoin ul-ma'oni, Toshkent: Fan, 1987, -B. 217
13. Saifnazarov I. Maktab ta'limi – uchinchi renessansning ustunlaridan biri sifatida // "Yangi O'zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishining ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari" 4(21), May, 2024 –B. 508. www.oriens.uz